

TILSHUNOSLIK SOHASIDA YOSH AVLODNING IZLANISHLARI

Izzatullayeva Madina Sirojiddin qizi

O'zbekiston davlat Jahon tillari Universiteti Xorijiy til va adabiyoti 3 ingliz fakulteti 2004 guruh talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Davlat tilining o'рни va uning muhimlik darajasi va til bo'yicha duch kelayotgub muammolarimiz haqida so'z boradi. Bundan tashqari, yurtimizda til bo'yicha amalga oshirishimiz kerak bo'lgan va amalga oshirilgan islohotlar haqida aytib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *xorij, millat, madaniyat, tilshunoslik, darsliklar, qonun, muloqot, xalq.*

Til bu madaniy hodisadir; shuning uchun ham mamlakatning merosi uning tiliga bog'liq. Ma'lumki, bugungi ingliz tili xalqaro muloqot tili hisoblanadi, u hayotimizning har bir jabhasiga kirib borgan va siyosiy hamda iqtisodiy masalalarni hal etishni osonlashtiradi, desak adashmagan bo'lamiz. Biroq o'ylashimcha, har bir mamlakat o'z tilini saqlab qolishga harakat qilishi kerak, chunki aynan til uni o'ziga xos qiladi va boshqa mamlakatlardan ajratib turadi. Biz ko'p tilli dunyoni saqlab qolishni istar edik, chunki har bir tilni o'rganishimiz bilan biz yangi bilimlarga ega bo'lamiz, Gyote shunday degan: «Inson nechta til bilsa, u shuncha marta odamdir». Boshqa tarafdin esa bugungi kunda dunyo aholisining katta qismi so'zlashadigan ingliz tilini bilishga yetarlicha baho bermaslik ham to'g'ri emas, chunki u iqtisodiyotning rivojlanishiga yordam beradi. Bu esa o'z navbatida millat, mamlakat va umuman jamiyat rivojlanishiga yordam ko'rsatadi. Inson, eng avvalo, muloqot qiluvchi zotdir, shu bois, fikrimcha millatlarning tilini unutmazlik zarur, biroq rivojlanishimiz va komil bo'lishimiz uchun bir-birimizni tushunish qobiliyatiga ega bo'lishimiz shart. Butun tarix davomida mamlakatlar ko'pgina masalalarni yechish uchun bir-biriga ehtiyoj sezgan va umumiy til ularning o'zaro muloqotini amalga oshirish imkonini bergan. Bugun yer yuzida olti mingga yaqin til va lahja bo'lsa, ulardan bor-yo'g'i yuzga yaqini davlat tili maqomiga ega. Ular orasida o'zbek tili ham borligi bizning baxtimiz, faxrimizdir. 1989-yil 21-oktyabrda, ya'ni hali sobiq tuzum mavjud bir paytda «Davlat tili to'g'risida»gi qonunning qabul qilinishi o'zligimizni anglash yo'lidagi ulkan jasorat bo'lgan edi. Shunga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida o'zbek tilining davlat tili sifatida huquqiy maqomi aniq belgilab berildi. Shu tariqa, o'zbek tili mustaqil davlatimizning bayrog'i, gerbi, madhiyasi, Konstitutsiyasi qatorida turadigan, qonun yo'li bilan himoya qilinadigan muqaddas timsollaridan biriga aylandi.

O'zbek tiliga Davlat tili maqomi berilganiga 30 yil to'ldi, afsuski o'zbek tili hali ham har tomonlama taraqqiy qilolmadi, davr va texnologiya talabiga monand ravishda to'la rivojlana olmadi. 21 asrning o'zgarishlarini yoritish, tahlil qilish talabiga ko'ra o'zbek tilshunosligi fani doimo o'zgarishda, rivojlanishda bo'lishi kerak edi, lekin buni qay darajada bajara oldi? Zero, barcha davrlar mobaynida o'zbek tilshunosligining asosiy vazifasi adabiy tilning shakllanish, rivojlanish va takomillashish yo'llarini, bunda amal qiladigan qonuniyatlar, sabab va imkoniyatlarni tahlil va tadqiq qilishdan iborat bo'lishi kerak edi. So'ngi 2 yil ichida O'zbekistonning jahon hamjamiyati bilan iqtisodiy va siyosiy aloqalari tobora kengayib bormoqda. Yurtimizdagi investitsiya uchun yaratilgan qulay sharoitlar sababli tadbirkorlar, bankirlar, dunyo sayyohlari uchun eng qiziqarli mamlakatlardan biriga aylanib bormoqda. Mana yaqinda internetda nufuzli sotsiologik tadqiqot markazlarining xulosalari asosida dunyoning borib ko'rish zarur bo'lgan eng jozibali 50ta shahari e'lon qilindi. Bu ro'yxatda Samarqand shahri eng oldingi o'rinlarda turibdi. Shunga ko'ra, dunyo xalqlari orasida o'zbek tilini o'rganishga ehtiyoj va e'tibor ortishi mumkin. Yaponiya, Xitoy, Koreya yoshlarining o'zbek tiliga bo'lgan qiziqishlari va imkoniyatlari kuchli, ular sof o'zbek tilida nutq tuzish imkoniyatiga ega. Garchi AQSh va Yevropa yoshlari, slavyan xalqlari vakillari o'zbek tiliga xos bo'lgan spetsifik tovushlarni to'liq va to'g'ri talaffuz qila olmasalar-da, ularda ham o'zbek tilini o'rganishga ehtiyoj kuchli. Ularning ko'pchiligi O'zbekistonga kelib ta'lim olishi mumkin, lekin buning uchun O'zbekistonda oliy ta'limni rivojlantirishimiz kerak. Shuningdek, 10dan ortiq - AQSh, Koreya, Xitoy, Yaponiya, Turkiya, Ukraina, Rossiya, Ozarboyjon kabi xorijiy universitetlarda ham o'zbek tili fan sifatida «Sharq tillari» kafedrasidagi fanlar sirasida o'qitiladi. O'zbek olimlar bu ta'lim maskanlari bilan hamkorlik qilib, o'zbek tili bo'yicha darslik va o'quv qo'llanmalarini yozishni boshlashdi. Aytish lozimki, ona tili bu millatning ma'naviy madaniyati va ruhi, dunyodagi har bir davlatning o'z «timsoli», millat dunyoda borligini ko'rsatuvchi ma'naviy bir xilqat. Ona tilimizni asrash va bu boradagi tadqiqotlarni rivojlantirish esa millatning yuksalishi bilan chambarchas bog'liqdir. Ilm-fanning globalashuv jarayonlari shiddat bilan dunyo xalqlari hayotiga o'zgacha ta'sir ko'rsatayotgan bir paytda, ona tilidan unumli foydalanish, uni asrash, targ'ib qilish kundan kunga zaruriyatga aylanmoqda. Ma'lumot o'rnida shuni aytish joizki, O'zbekistonlik YuNESKO mukofotiga sazovor bo'lgan olimning ta'kidlashicha, "Shu maqsadda AQSh, Janubiy Koreya, Turkiya, Rossiya, Xitoy, Ozarboyjon, Qozog'iston kabi davlatlarning nufuzli ilmiy jurnallarida aynan o'zbek tili bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlarim nashr etildi. Turli xorijiy davlatlarda tashkil etilgan xalqaro anjuman va forumlarda o'zbek tilining ifoda imkoniyatlari, o'ziga xos milliy-madaniy xususiyatlarini ochib beradigan ilmiy ma'ruzalarim bilan ishtirok etdim. 2019 yilda esa Rossiyada ingliz tilida «Transterminologization in The

Uzbek Language» nomli ilmiy monografiyam chop etildi.” Bu ham yurtimizda Tilshunoslik sohasida yoshlarimiz orasida izlanishlar olib borilayotganidan dalolat beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Samarqand davlat Chet tillari Instituti Zamonaviy tilshunoslik va lingvodidaktikaning kommunikativ aspektlari
2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va O‘rta Maxsus Ta’lim vazirligi Nosirjon Uluqov “Tilshunoslik nazariyasi”.

